

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

REFERAT

Mavzu: O'zbekiston Respublikasining
tashqi iqtisodiy a'loqalari

Bajardi: Hakimov S.
Tekshirdi: Mustapova H.

Toshkent-2015

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy a'loqalari

Reja:

- 1. Xalqaro iqtisodiy a'loqalar tushunchasi va uning ko'rinishlari;**
- 2. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belarus bilan hamkorlik aloqalari;**
- 3. O'zbekistonning Moldova, Gruzija va Ozarbayjon bilan aloqalari;**
- 4. O'zbekistonning Boltiqbo'yi respublikalari bilan hamkorligi.**

1. Xalqaro iqtisodiy a'loqalar tushunchasi va uning ko'rinishlari
Iqtisodiy adabiyotlarda, xususan, xalqaro iqtisodiy fanlar tizimida, "xalqaro iqtisodiyot tushunchasini xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi, formasi sifatida alohida tadqiq etadilar. Forma – bu o'ziga xos bir ko'rinish, ma'lum bir jarayon, hatti-harakatda xalqaro munosabatlarning namoyon bo'lishi.

Xalqaro maishiy munosabatlar tarixi xalqaro savdo tarixi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Tarixiy nuqtai nazardan olib qaraganda bu xalqaro iqtisodiy a'loqalarning dastlabki ko'rinishi hisoblanadi. U bir martalik tashqi savdo munosabatlaridan keng ko'lamli savdo-iqtisodiy hamkorlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan.

Xalqaro bozor bu bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biri bilan turli iqtisodiy hamkorlik yo'llari orqali hamkorlik qiladigan ichki, milliy bozorlarning yig'indisini o'zida namoyon etadi. Xalqaro bozor o'z ishtirokchilari o'rtasidagi raqobat natijasida ishlab chiqarish va eksport, xalqaro mehnat taqsimoti darajasi rivojlanishini aniqlab beradi.

AQSH, Germaniya, Yaponiya va boshqa shu kabi davlatlar eksport tovarlarida ilmiy-tadqiqot va tajribaviy-konstruktiv mehnatga qaratilgan xarajatlar hajmi oshib bormoqda, va umuman olganda, rivojlangan davlatlarning asosiy "mutaxisligi" ilmiy, yuqori texnologiya talablariga javob beradigan tovarlar yetkazish bo'lib bormoqda. Ayni mana shu omillar, xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro mutaxislikning neotexnologik modellari shakllanishiga olib kelmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, ilmiy-texnologik inqilob bu o'rinda o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Zamonaviy shart-sharoitlarda xalqaro mehnat taqsimoti yo'nalganligiga ko'ra texnologik mehnat taqsimoti bilan almashib bormoqda, ya'ni turli davlatlarning ma'lum bir mahsulotga yoki uning detaliga moslashish jarayoni shakllanib bormoqda.

Zamonaviy xalqaro savdo yanada ko'proq va shiddatliroq ravishda yetkazib beruvchi va iste'mol qiluvchi o'rtasidagi uzoq muddatli va barqaror munosabatlar

tizimiga aylanib bormoqda. Bunday munosabatlarning asosida bevosita ishlab chiqarish texnologik jarayoni bo'yicha xalqaro aloqalarning rivojlanishi yotadi.

Bu kabi xalqaro-mintaqaviy va global xarakterga ega bo'lgan ishlab chiqarishning mutaxassislashuvi va kooperatsiyasida sanoatning yetakchi tarmoqlarida faoliyat olib boruvchi Trans milliy korporatsiyalar (TMK) alohida rol o'ynab kelmoqda. TMKning ichki tadbirkorlik savdosi hissasiga AQSH butun eksportining 40%i to'g'ri keladi.

Rossiya Federatsiyasi bilan aloqalar. Hamdo'stlik davlatlari orasida eng qudratli, ulkan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmish Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'ldi. 1991-yil 26-oktabrda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov rasmiy davlat safari bilan Moskvaga bordi. Uchrashuvda I.Karimov va B.Yelsin ikki davlat o'rtasida muxtor vakolatxonalar ochish, bir-birlarining suverenitetini va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, tashqi siyosatda va iqtisodiy masalalarda hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

1992-yil 30-mayda I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnomada ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos solindi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi, elchixonalar ochildi.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni takomillashtirish va rivojlantirishda I.Karimovning 1994-yil mart oyidagi Rossiya Federatsiyasiga qilingan rasmiy davlat tashrifi ham muhim o'rinni egalladi. **I.Karimov bilan B.Yelsin o'rtasidagi muzokaralar yakunida 1994-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida Deklaratsiya, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida, harbiy sohadagi hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolandi.**

Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi V.S.Chernomirdin 1995-yil 26-28-iyun kunlari rasmiy safar bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar chog'ida iqtisodiy, madaniy

hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladigan qator hujjatlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi imzolangan hujjatlar savdo-iqtisodiy, kommunikatsiya, fan-texnika, madaniy aloqalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 5-7-may kunlari Rossiya Federatsiyasiga qilgan rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston rahbarining Rossiya Prezidenti bilan oliy darajadagi uchrashuvi va ikki davlat boshliqlari tomonidan imzolangan qo'shma bayonot mazkur ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tardi.

Rossiya Prezidenti V.Putinning 2000-yil 18-19-may kunlari rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'lishi va I.Karimov bilan olib borgan do'stona muzokaralari har ikkala davlat uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Muzokaralar chog'ida davlat boshliqlari mamlakatlar xavfsizligiga tahdid soluvchi har qanday xavf-xatarlarga qarshi hamjihatlikda kurashishning ahamiyatini ta'kidladilar. Shuningdek, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy va xavfsizlik borasidagi hamkorlikka oid masalalar xususida ham o'zaro fikr almashdilar. Tashrif yakunida mamlakat hukumatlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari va Rossiya Federatsiyasi subyektlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish hamda xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitimlar imzolandi.

Ukraina va Belarus bilan hamkorlik aloqalari. O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarga asos solishda O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1992-yil 25-26-avgust kunlari Kiyevga rasmiy davlat tashrifi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Safar paytida Islom Karimov va Ukraina Prezidenti Leonid Kravchuk O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi protokol va savdo-iqtisodiy hamkorlik bitimiga ham kelishildi.

1994-yil 10-11-noyabr kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Ukrainaga ikkinchi marta davlat tashrifi bilan borishi har ikkala davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yanada yuqori bosqichlarga ko'tarishga xizmat qildi.

Ikki davlat hukumatlari o'rtasida 1995-yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim, Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik dasturi imzolandi. O'zbekiston va Ukraina Prezidentlari aloqalarni rivojlantirish, qo'shma korxonalar, aksionerlik jamiyatlarini barpo etish, erkin savdo-sotiq tartibini o'rnatishga ahdlashdilar. Yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashda o'zaro hamkorlik qilishga kelishib olindi.

1995-yil 20-21-iyun kunlari Ukraina Prezidenti L.Kuchma davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. Uchrashuvda O'zbekiston va Ukraina o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr ilmashildi. Ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibidagi nuzokaralari Xalqlar do'stligi saroyida davom ettirildi. Bu yerda O'zbekiston-Ukraina hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida Deklaratsiya aabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaning I-moddasida «tomonlar iqtisodiy islohotlarni o'tkazish jarayonida harakatlarni nuvofiqlashtiradilar, O'zbekiston Respublikasi va Ukrainaning hamma shakldagi xo'jalik subyektlari, viloyatlari hamda mintaqaviy tuzilmalari o'rtasida o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarning saqlanib qolishi va rivojlanishiga ko'maklashadilar», deb aniq aytiladi.

1999-yilda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov va Ukraina Prezidenti L.Kuchma tomonidan imzolangan 1999-2008-yillarda o'zaro iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Unda qo'shma sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish, savdo-sotiqni yaxshilash, mahsulot va transport tranzitiga keng yo'l ochish hamda kuchaytirish kabi vazifalar aks etgan edi.

Ukraina Prezidenti Leonid Kuchmaning 2000-yil 12-13-oktabr kunlaridagi O'zbekistonga tashrifidagi I.Karimov bilan olib borgan muzokaralari chog'ida

nazkur huquqiy poydevor yanada mustahkamlandi. Jumladan, GUUAM – Gruziya O'zbekiston, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova a'zo bo'lgan norasmiy tuzilmalar doirasida hamkorlik hamda Yevroosiyo transport yo'lagini tashkil etish borasida fikr almashildi. GUUAM doirasidagi hamkorlikning kengayishi transport kommunikatsiyasining rivojiga katta ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning transport-tranzit imkoniyatlarini oshiradi. Muzokaralar yakunida o'nga yaqin hujjat imzolandi. Jumladan, Samarqand va Lvov shaharlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti bilan Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, ikki mamlakat o'rtasida deportatsiya qilingan va O'zbekistondan Ukrainaga qaytish xohishida bo'lgan shaxslarning fuqaroligi masalasini hal qilishda o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi ahdlashuv qabul qilindi.

O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1992-2003-yillarda neftni qayta ishlash, kommunikatsiya, fan-texnika, sanoat, savdo va boshqa sohalarda hamkorlik bo'yicha 80 dan ortiq hujjat imzolandi. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida axborot almashish sohasida hamkorlik qilmoqda.

1994-yil 22-dekabrda Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Shu kuni Xalqlar do'stligi saroyida ikki davlat rahbarlarining suhbat bo'ldi. Muzokaralar yakunida davlatlararo hamda har ikki mamlakat muammolari munosabatlariga doir 18 ta hujjat imzolandi. Jumladan, ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi. Deklaratsiyada O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi BMT Ustaviga, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik bo'yicha Xelsenkida bo'lib o'tgan Kengashning yakunlovchi Aktiga va boshqa hujjatlarga muvofiq ish yuritishi qayd qilindi. Ya'ni suveren, tenglik prinsiplari, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan zo'ravonlik qilmaslik, davlatlar chegaralarining mustahkamligi, hududiy daxlsizlik, nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, inson huquqlari va erkinliklarini, teng huquqliligini hamda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini hurmat qilish,

xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish asosida ular o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash hamda yanada rivojlantirish borasida sa'y-harakatlarni faollashtiradilar, deb qayd qildilar. Ikki tomonlama imzolangan madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi shartnomada esa tomonlarning O'zbekiston va Belarus xalqlarining madaniy va ma'naviy aloqalariga tayanib, ular o'rtasida madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlikni bundan buyon ham rivojlantirishga ko'maklashishlari qayd etilgan.

O'zbekistonning Moldova, Gruzija va Ozarbayjon bilan aloqalari. 1995-yil 30-31-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Moldova respublikasida rasmiy safarda bo'lib, Moldova Prezidenti Mircha Snegur o'rtasidagi muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Respublikasi va Moldova Respublikasi o'rtasida do'stona hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Hukumatlar o'rtasida erkin savdo munosabatlarini rivojlantirish, fan-texnika, madaniyat va san'at, pochta xizmati, aloqa, bank sohalarida hamkorlik, samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish, ikki tomonlama soliq olmaslik to'g'risidagi o'ndan ziyod bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar izdan chiqqan aloqalarning tiklanishi uchun huquqiy zamin yaratdi. O'zbekiston uchun shakar, dori-darmonlar, qishloq xo'jalik texnikasi, elektrotexnika asbob-uskunolari, sug'orishda foydalaniladigan nasoslarni Moldovadan, o'z navbatida Moldova sanoati uchun paxta, kimyoviy tola, qattiq metallarni O'zbekistondan oladigan bo'ldi.

1996-yil 12-may kuni Ashgabadida O'zbekiston, Gruzija, Turkmaniston va Ozarbayjon Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda to'rtta mamlakat o'rtasida temir yo'l transporti faoliyatini muvofiqlashtirish haqida hamda tranzit yuk tashishni tartibga sohsh sohasida hamkorlik bo'yicha bitim imzolandi. Mazkur bitimni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1996-yil may oyida Gruzija va Ozarbayjon Respublikalariga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Islom Karimovning Gruziyaga safarida xalqaro Trans Kavkaz yo'li, uning Gruziyadan o'tadigan qismini barpo etish, Gruziyaning Poti bandargohi imkoniyatlaridan O'zbekiston yuklarini tashishda foydalanish masalalari bo'yicha ahdlashib olindi. Shuningdek,

O'zbekiston bilan Gruziya o'rtasida moliya-sanoat guruhini tuzish, huquq-tartibot pochta aloqasi, savdo, soliq, bojxona tizimi kabi 15 taga yaqin hukumatlararo bitirnlr imzolandi.

1996-yil 27-may kuni Islom Karimov boshhq O'zbekiston davlat delegatsiyasi Ozarbayjonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar. Safar chog'ida O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida savdo-iqtisodiy, soliq, bojxona, havo yo'li, avtomobil va temir yo'l aloqalari, madaniy va boshqa sohalaragi munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha 20 ga yaqin hukumatlararo hujjatlar imzolandi. Ikki davlat rahbarlari xalqaro Trans-Kavkaz yo'lini barpo etish, uning Ozarbayjondan o'tadigan qismini shakllantirish, O'zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarish, Ozarbayjon bandargohlarini ta'mirlash masalalari to'g'risida kelishib oldilar. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar to'g'risida protokol imzolandi.

1997-yilda Toshkentda Ozarbayjon elchixonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Ozarbayjon Prezidenti Geydar Aliyev qatnashdilar.

1998-yilning 6-yanvar kuni Toshkentda O'zbekiston, Ozarbayjon va Gruziya hukumat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Unda Trans-Kavkaz yo'li orqali yuk tashish hajmini yanada oshirish, o'zaro hisob-kitoblarni tartibga sohsh, Trans-Kavkaz yo'li infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

1998-yilning 17-18-dekabr kunlari Moldova Respublikasining Prezidenti Petru Lujinski rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Prezident Islom Karimov va Moldova Prezidenti Petru Lujinski ishtirokidagi ikki davlat hukumat delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari jarayonida prezidentlar har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risida Deklaratsiya imzoladilar. O'zbekistonning Moldova, Gruziya va Ozarbayjon bilan keyingi yillardagi o'zaro hamkorlik yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

O'zbekistonning Boltiqbo'yi respublikalari bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 1995-yil 6-8-iyun kunlari davlat tashrifi bilan Latviya Respublikasida bo'lishi har ikkala mamlakat hayoti uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tashrif chog'ida Islom Karimov Latviya Respublikasi Prezidenti Guntis Ulmanis bilan O'zbekiston Respublikasi va Latviya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. O'zbekiston va Latviya hukumatlari o'rtasida transport havo aloqasi, sayyohlik hamda ilmiy-texnik sohalar bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Latviya Prezidenti G.Ulmanisning 1996-yil 23-mayda O'zbekistonga safari ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada chuqurlashtirdi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Latviya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish to'g'risida Deklaratsiya imzoladilar. Hukumatlararo fuqarolik, mehnat, huquq-targ'ibot, xalqaro avtomobil qatnovi, temir yo'l transporti, madaniyat, bojxona ishida o'zaro hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

I.Karimovning 1995-yil iyun oyida Litvaga tashrifi chog'ida Prezident A.Brazauskas bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma Deklaratsiyani imzoladi. O'zbekiston hukumati bilan Litva hukumati o'rtasida ta'lim, fan va texnika, sayyohlik, madaniyat va san'at, savdo-iqtisodiy, havo transporti sohalarida hamda bojxona qonunini buzish hollariga qarshi kurash borasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar tuzildi. O'zbekiston Litvadan elektr uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, sut va sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlarini sotib olib, Litvaga paxta, neft, rangli metallar eksport qiladi.

2002-yilning 18-20-fevral kunlari Litva Bosh vaziri A.Brazauskasning O'zbekistonga tashrifi mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda mamlakatimizning o'rnini aniq ko'rsatib berdi.